	Жисмоний тарбия	184		136		136				48	2	2		2	2
	Чаксирувга қадар бошланғич тайёргарлик	184		136	68	68				48	2	2		2	2
II	Чуқурлаштирилган фанлар	1703	43,8	1258	612	589	57	0	0	445	19	18	0	18	19
1	Она тили ва адабиёт:	368		272	170	102	0	0	0	96	4	4	0	4	4
	Она тили	184		136	68	68				48	2	2		2	2
	Адабиёт	184		136	102	34				48	2	2		2	2
2	Математика:	736		544	272	272	0	0	0	192	8	8	0	8	8
	Алгебра	460		340	170	170				120	5	5		5	5
	Геометрия	276		204	102	102				72	3	3		3	3
3	Физика:	598		442	170	215	57	0	0	156	7	6	0	6	7
	Физика	598		442	170	215	57			156	7	6		6	7
	Касбий фанлар	108	2,8	80		80				28			40		
	Таълим мусассасаси ихтиёридаги соатлар	92	2,4	68						24	1	1		1	1
	Давлат аттестацияси	97	2,5	72						25					
	Ҳафталик юклама										40	40	0	40	40
	Жами	3888	100	2872	1294	1334	87	17	0	1016					

III. Тушунтириш хати

Ушбу ўқув режа академик лицейни тугатгандан кейин **математика, физика, оня тили ва адабиёти** фанларидан кўрида тест синовлари топшириладиган олий таълим муассасаларига кирувчилар учун мўлжалланган.

1. Машгулотлар 2 сентябрдан бошланиб, май ойининг охирида тугайди.

2. Ўқув машгулотларини кичик гуруҳга бўлиб ўқитиш Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги 187-сонли қарорининг 14-бандига мувофиқ амалга оширилади.

3. Маъмур ўқув режа асосида таълим муассасаси ишчи ўқув режасини тузади. Бунда ўқув юкламининг ҳафталик ҳажмини сақлаган ҳолда чуқурлаштирилган ва қўшимча чуқурлаштирилган фанлари блоки таркибидagi фанлар ҳажмини педагогик кенгаш қарори билан 10% гача, курс ва семестрлардаги соатлар ҳажмини 5% гача ўзгартиришга рухсат этилади.

4. Ишчи ўқув режани ишлаб чиқишда намунавий ўқув режадаги умумтаълим фанлар блокидаги бир қил номдаги фанлар - **оия тили ва адабиёти, математика, физика** чуқурлаштирилиб ўқитиладиган фанлар блокидаги **оия тили ва адабиёти, математика, физика** соатларига қўшилиб, битта фан сифатида ўқитилади.

5. Мутахассислик фанига ажратилган соат педагогик кенгаши қарори билан битирувчиларга бериладиган мутахассислик бўйича махсус фани ўқитишга ажратилади.

6. Таълим муассасаси ихтиёридаги соатлар таълим муассасасининг педагогик кенгаши қарорига асосан махсус курсларни ўқитишга ажратилади.

7. Академик лицейларнинг битирувчиларига бериладиган мутахассислик ўқитувчилар таркиби, ўқув методик, моддий-техника базасидан келиб чиққан ҳолда белгиланади ва таълим муассасасининг педагогик кенгашининг қарори билан тасдиқланади.

Ўқув жараёни таркибий қисмлари	Ҳафталар сон	Семестр	Соатлар миқдори	Давлат аттестацияси
Назарий машгулотлар	100	1-4	2652	Ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларида яқиний давлат аттестациясини ўтказиш тартиби тўғрисидаги қонунга мувофиқ амалга оширилади.
Касбий фанлар		2	80	
Давлат аттестацияси	2	4	72	
Таълим муассасаси ихтиёридаги соат		1-4	68	
Таътиллар	14			
Жами	116	1-6	2872	

Ўқув ишлари бўйича директор ўринбосари

Кафедра музирлари



Ж.М. Эммуралов

З.Чориева

Н.Маткаримова


Ш.Мааллонова

Академик лицей илмий-педагогик кенгашининг 2017 йил 28-августдаги 1-сонли баённомасига мувофиқ тасвир этилган.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI**

**O‘RTA VA O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA’LIMINING
DAVLAT TA’LIM STANDARTI
VA O‘QUV DASTURI**

INFORMATIKA



Toshkent-2017

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI
O‘RTA VA O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMINING DAVLAT
TA‘LIM STANDARTLARINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA

«[Ta‘lim to‘g‘risida](#)»gi va «[Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida](#)»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, umumta‘lim fanlarini o‘qitishning uzluksizligi va izchilligini ta‘minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi davlat ta‘lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

O‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti [1-ilovaga](#) muvofiq;

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standarti [2-ilovaga](#) muvofiq;

O‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining umumta‘lim fanlari bo‘yicha malaka talablari [3-ilovaga](#) muvofiq;

Akademik litsey va kasb-hunar kolleji diplomlarining davlat namunalari [4-ilovaga](#) muvofiq;

O‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari uchun umumta‘lim fanlaridan o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo‘yiladigan umumiy talablar [5-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo‘yilsinki:

o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlari 2018-2019o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etiladi;

umumta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinflari uchun filologiya fanlari va aniq fanlar bo‘yicha mashq daftarlarini nashr etish hamda yetkazib berish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg‘armasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2006-yil 1-iyundagi PQ-363-son qarorida belgilangan darsliklarni nashr etish hamda yetkazib berishni moliyalashtirish tartibiga asosan, multimediali disk ilovasi bilan ta‘minlash esa — o‘qituvchilarni o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta‘minlash tartibi asosida amalga oshiriladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi:

ikki oy muddatda o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlari talablari asosida o‘quv dasturlarini yangidan ishlab chiqib, belgilangan tartibda tasdiqlaslar hamda o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalariga yetkazsinlar;

O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi bilan birgalikda uch oy muddatda yaratilayotgan o‘quv-metodik majmualarning o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydigan, rasmlarga boy, zamonaviy matbaa talablariga javob beradigan shakllarda chop etilishini ta‘minlasinlar;

o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlarini amaliyotga samarali joriy etish yuzasidan tegishli mutaxassislar uchun 2018-2019o‘quv yilidan boshlab maqsadli o‘quvlar tashkil etsinlar hamda pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari dasturlari va o‘quv modullarining qayta ko‘rib chiqilishini ta‘minlasinlar.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi Sog'liqni saqlash vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi hamda manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda 2018-2019o'quv yiliga qadar akademik litseylarning ta'lim yo'nalishlari va kasb-hunar kollejlarining tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin.

5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi taqdim etgan xarajatlar smetalari asosida o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari, akademik litseylarning ta'lim yo'nalishlari va kasb-hunar kollejlarining tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha malaka talablarini, o'quv rejalari va dasturlarini, akademik litsey va kasb-hunar kolleji diplomlari blankalarini chop etish uchun sarflanadigan mablag'larni belgilangan tartibda ajratsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining [6-iloraga](#) muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining [7-iloraga](#) muvofiq ayrim qarorlari 2020-yil 1-sentabrdan boshlab o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Vazirliklar va idoralar o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta'lim va ilm-fan masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2017-yil 6-aprel,
187-son

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi

187-son [qaroriga](#)

1-ILOVA

O'rta ta'limning

DAVLAT TA'LIM STANDARTI

1-bob. Asosiy qoidalar

1. O'rta ta'limning davlat ta'lim standarti (keyingi o'rinlarda davlat ta'lim standarti deb ataladi) davlat ta'lim standartining maqsad va vazifalarini, asosiy prinsiplarini, tarkibiy qismlarini, davlat ta'lim standartlarini joriy etish hamda davlat ta'lim standartlari talablariga rioya etilishini nazorat qilish tartibini belgilaydi.

2. Davlat ta'lim standartini ishlab chiqish quyidagi hujjatlarga asoslanadi:

O'zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasi](#);

«Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuni](#);

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuni](#);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va amalda joriy etish to'g'risida» 1998-yil 5-yanvardagi 5-son [qarori](#);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida» 2013-yil 8-maydagi 124-son [qarori](#);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi 2017-yil 15-martdagi 140-son [qarori](#);

O'zDSt 1.0-98. «O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar»;

O'zDSt 1.1-92. «O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. O'zbekiston Respublikasi standartlarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartiblari»;

O'z DSt 1.5-93. «Standartlashtirishga doir normativ hujjatlarni ko'rib chiqish, tekshirish, o'zgartirish kiritish va bekor qilish tartibi»;

O'z DSt 1157:2008. Hujjatlarni unifikatsiyalashtirish tizimi. Tashkiliy-farmoyish hujjatlar tizimi. Hujjatlarni rasmiylashtirishga bo'lgan talablar.

O'z DSt 1.8:2009. Asosiy qoidalar. Tavsiyalar.

3. Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha o'rta ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

2-bob. O'rta ta'limning davlat ta'lim standartining maqsad va vazifalari

4. Davlat ta'lim standartining maqsadi — o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

5. Davlat ta'lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:

o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

3-bob. O'rta ta'lim davlat ta'lim standartining asosiy prinsiplari

6. Davlat ta'lim standarti quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;

davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;

o'rta ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;

o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

4-bob. O'rta ta'limning davlat ta'lim standartining tarkibiy qismlari

7. Davlat ta'lim standarti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi;

o'rta ta'limning o'quv dasturi;

o'rta ta'limning malaka talablari;

baholash tizimi.

8. O'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi (keyingi o'rinlarda — tayanch o'quv reja deb ataladi) o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan o'quv fanlari nomi, o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

9. Tayanch o'quv reja o'rta ta'lim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

10. Tayanch o'quv reja umumta'lim fanlari bo'yicha belgilangan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi.

REJASI

[illegible]

8.	Jismoniy tarbiya										18
	Maktab ixtiyoridagi soatlar	,5						,5	,5		2,5
	Umumiy soatlar	2,5	4	6	6	0,5	2,5	4	4,5	7	267
	Amaliy mehnat mashg'uloti (kun hisobida)							0	6		

11. Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi yetarli bo'lgan o'rta ta'lim muassasalarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarining ruxsati bilan o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik kengashlariga dars jadvalini tuzishda tayanch o'quv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagan holda, ma'lum bir fanlarni chuqurlashtirib o'qitish maqsadida 15 % gacha o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.

12. O'rta ta'limning o'quv dasturi (keyingi o'rinlarda — o'quv dasturi deb ataladi) tayanch o'quv rejaga muvofiq o'quv fanlarining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi.

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

13. O'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat bo'lib, u quyidagilardan tashkil topadi:

bilim — o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

ko'nikma — o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish;

malaka — o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

kompetensiya — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

14. Baholash tizimi — davlat ta'lim standarti bo'yicha o'rta ta'limning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasini hamda o'rta ta'lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

5-bob. O'rta ta'limning davlat ta'lim standartini joriy etish tartibi

15. O'zbekiston Respublikasida davlat ta'lim standartini joriy etish, muvofiqlashtirish, unga metodik rahbarlik qilish O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

16. Davlat ta'lim standartini joriy etish, shu jumladan, umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan minimal talablarni, o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini tasdiqlash pedagogik tajriba-sinov ishlari muvaffaqiyatli yakunlanib, ularga ekspert baho berilgach amalga oshiriladi.

17. Davlat ta'lim standartiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

6-bob. O'rta ta'limning davlat ta'lim standarti talablariga rioya etilishini nazorat qilish

18. Davlat ta'lim standarti talablariga rioya qilish ustidan nazoratni amalga oshirishning maqsadi — davlat ta'lim standarti talablarini bajarish darajasini aniqlash, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida ta'lim sifatini ta'minlashdan iborat.

19. Davlat ta'lim standarti talablariga rioya qilish ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

davlat ta'lim standarti talablari asosida barcha o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan malaka talablariga baho berish;

tayanch o'quv reja va o'quv dasturlarining bajarilishini tahlil qilish;

o'rta ta'lim muassasasida davlat ta'lim standartlari talablari bajarilishi va ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni, foydalanilgan pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining natijaviyligini tahlil qilish.

20. O'rta ta'lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat:

ichki nazorat — O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartib asosida o'rta ta'lim muassasasining monitoring guruhi tomonidan amalga oshiriladi;

tashqi nazorat — ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlari, hududiy xalq ta'limi boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi;

davlat-jamoatchilik nazorati — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hududiy xalq ta'limi boshqaruvi organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi;

milliy va xalqaro darajada baholash — Hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar asosida xalq ta'limi boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi.

21. O'rta ta'lim muassasasi o'quvchilarining bilimi sifatini nazorat qilishning reyting tizimi tartibi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan tasdiqlanadi.

22. Davlat ta'lim standarti talablarining bajarilmaganligi uchun javobgarlik qonun hujjatlariga muvofiq o'rta ta'lim muassasasi rahbariyatiga yuklanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi

187-son qaroriga

3-ILOVA

O'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha

MALAKA TALABLARI

I-bob. Umumiy qoidalar

1-§. Qo'llanish sohasi

1. O'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablari (keyingi o'rinlarda — Malaka talablari deb ataladi) o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarining negizi hisoblanadi va standartlashtirishning umumta'lim fanlarini o'rganishning bosqichlarini, o'quv fanlari bo'yicha ta'lim mazmuni va malaka talablarining tuzilishini belgilaydi.

2. Malaka talablari ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari hamda o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar tomonidan qo'llanilishi majburiydir.

3. Malaka talablari asosida ta'lim muassasasining turi va xususiyatlarini inobatga olgan holda o'quv dasturlari, davlat attestatsiyasi uchun umumta'lim fanlari bo'yicha

nazorat-baholash ko'rsatkichlari ishlab chiqiladi va vakolatli vazirliklar, idoralar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

2-§. O'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida umumta'lim fanlarini o'rganish bosqichlari

4. O'zbekiston Respublikasi o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida davlat ta'lim standartlariga asoslangan holda umumta'lim fanlarini o'rganish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Standart darajalari	Darajalarning nomlanishi
A1	Umumta'lim fanlarini o'rganishning boshlang'ich darajasi
A1+	Umumta'lim fanlarini o'rganishning kuchaytirilgan boshlang'ich darajasi
A2	Umumta'lim fanlarini o'rganishning tayanch darajasi
A2+	Umumta'lim fanlarini o'rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
B1	Umumta'lim fanlarini o'rganishning umumiy darajasi
B1+	Umumta'lim fanlarini o'rganishning kuchaytirilgan umumiy darajasi

3-§. O'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablarining tuzilishi

5. O'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablari:

o'quv fanini o'rganishning bosqichlarini;

tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarni;

o'quv fanining maqsad va vazifalarini;

umumta'lim fanlarini o'rganishning mazmunini;

o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha majburiy tayyorgarlik darajalarini hamda ta'lim muassasalarini bitiruvchilariga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

4-§. Tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalar

6. O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetensiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi — mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, mediamadaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e‘tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o‘qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta’lim fanlari orqali o‘quvchilarda shakllantiriladi.

Shuningdek, har bir umumta’lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi

187-son [qaroriga](#)

5-ILOVA

O‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalari uchun umumta’lim fanlaridan o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo‘yiladigan UMUMIY TALABLAR

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Umumiy talablar O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Umumta’lim maktablari o‘quvchilarini darsliklar bilan ta’minlash tizimini takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2006-yil 31-maydagi 362-son, Vazirlar Mahkamasining «2005-2009-yillarda umumta’lim maktablari uchun darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalar nashr etish dasturi to‘g‘risida» 2004-yil 22-noyabrdagi 548-son hamda «2009-2013-yillarda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun o‘quv qo‘llanmalarini nashr etish dasturi to‘g‘risida» 2009-yil 20-martdagi 80-son qarorlariga muvofiq, o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun o‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Umumiy talablarda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

O‘quv-metodik majmua — darslik, mashq daftari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua.

Darslik — davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan, o‘quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma’lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o‘quv nashri.

Mashq daftari — darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita.

O'qituvchi uchun metodik qo'llanma — darslikdagi har bir mavzuni samarali o'qitish metodikasi, qo'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Darsliklarning multimediali ilovalari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yoritiladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi.

3. O'quv-metodik majmualar davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlariga muvofiq, didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablar asosida ishlab chiqilgan darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma va darslikning multimediali ilovalarini o'z ichiga oladi.

4. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish qonun hujjatlari hamda ushbu Umumiy talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

2-bob. O'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishning maqsad va vazifalari

5. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishning maqsadi o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun zamonaviy fan va texnika rivojini hisobga olgan holda kompetensiyaviy yondashuv talablari asosida o'quv materiallari mazmuni va sifatini takomillashtirish hamda ushbu sohadagi ilg'or xorijiy tajribani samarali tatbiq etishdan iborat.

6. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish prinsiplari hamda ularning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

o'quvchilarda milliy g'urur va iftixor, moddiy va ma'naviy merosga qadriyatli munosabatni tarkib toptirish;

davlat ta'lim standartlari talablari asosida o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malaka hamda kompetensiyalarning to'liq o'zlashtirilishiga erishish;

o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

yangi avlod o'quv-metodik majmualarini yaratish va amaliyotga joriy etish;

o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish;

umumta'lim fanlarini o'qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish.

3-bob. O'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish prinsiplari

7. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

o'quv-metodik majmualar ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari asosida yaratilganligi;

o'quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi;

o'quvchilarda vatanparvarlik va milliy g'urur hissini shakllantirishga qaratilganligi;

o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining zarur hajmi berilganligi, o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

4-bob. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar

8. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga quyidagicha talablar qo'yiladi:

Didaktik talablar:

o'quvchi tomonidan o'quv materiallarining to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash;

matnlar axborot berishga emas, balki o'quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilishi;

qiziqarli, lo'nda va hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan bo'lishi;

ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

ta'limning kundalik hayot va amaliyot o'rtasidagi bog'liqligini ta'minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish layoqatlari shakllantirilishiga, boshqa o'quv fanlari bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi;

rasmlar ko'rinishidagi illustراسiyalar: xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan bezatilgan bo'lishi;

yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, formulalar, ta'riflar va shu kabilar lug'at ko'rinishida ifodalangan bo'lishi lozim.

Ilmiy-metodik talablar:

fan-texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi;

o'quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta'minlangan bo'lishi;

o'quv fani mavzulari o'zbek adabiy tili qoidalariga to'liq rioya qilgan holda oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

mantiqiy ketma-ketlikka va izchillikka amal qilinishi;

milliy g'oya va O'zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo'lmagan tegishli illustراسiyalar bilan boyitilishi;

savol va topshiriqlar aniq ifodalangan bo'lishi;

o'quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o'tkazishga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo'lishi;

bir tushunchaning ikki xil atama bilan ifodalanishiga, sanalarni keltirishda mavhumlikka yo'l qo'yilmasligi;

kasb-hunarga yo'naltirishga oid matnlar va rasmlar, izohli lug'at, texnik ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirish yuzasidan topshiriqlarni qamrab olgan bo'lishi lozim.

Pedagogik-psixologik talablar:

keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma'lumotlar, o'quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga va amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi;

o'quv fani mavzularining o'quvchi yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, ma'lum faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog'liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

o'quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, oldin olgan bilimlarini o'zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo'lishi lozim.

Estetik talablar:

imkon darajasida yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bo'lishi;

matnlar o'quvchiga ma'lum ijobiy hissiy ta'sirlarni o'tkazishi va o'quv faniga qiziqish uyg'otishi;

bo'lim, bob, paragraf va mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibligi ta'minlanishi;

rasm va tasvirlar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalanishi lozim.

Gigiyenik talablar:

matn va ilustrasiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo'lishi;

harflarning kattaligi va qog'ozning sifati (og'irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) Vazirlar Mahkamasining «Ta'lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash to'g'risida» 2015-yil 3-iyundagi 146-son [qarori](#) talablariga mos bo'lishi lozim.

Informatika va axborot texnologiyalari fani
O'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim (barcha ta'lim olish tillari bo'yicha)
ona tili fanini o'qitish bosqichlari

Ta'lim bosqichi	Bitiruvchilar	Standart darajasi	Daraja nomlanishi
O'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi	Informatika va axborot texnologiyalari fani chuqurlashtirilmagan o'rta ta'lim bitiruvchilari	B1	Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'rganishning umumiy darajasi
O'rta ta'lim	Informatika va axborot texnologiyalari fani chuqurlashtirilgan o'rta ta'lim bitiruvchilari	B1+	Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'rganishning kuchaytirilgan umumiy darajasi

Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning maqsad va vazifalari

O'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limda informatika va axborot texnologiyalari o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi – o'sib kelayotgan avlodni zamonaviy axborot texnologiya vositalari bilan ishlash malakalari, mustaqil, mantiqiy va algoritmik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat va olgan bilimlarini hayotda tatbiq etishga o'rgatishdan iborat.

O'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limda informatika va axborot texnologiyalari ta'limining asosiy vazifalari:

o'quvchilarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularni amaliyotda qo'llash haqida bilimlar berish;

kompyuterda masalalar yechish texnologiyalari va asosiy bosqichlarini ketma-ketlikda to'g'ri bajara olish;

algoritmik tuzilmalarni, algoritmish va dasturlash asoslari haqida bilim berish;

kompyuterning dasturiy ta'minoti va ularning imkoniyatlarini ajrata bilish hamda amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish;

o'quvchilarni aqliy rivojlantirish, ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini o'rgatib borish orqali ularda umuminsoniy qadriyatlarga rioya etishni rivojlantirishga qaratilgan va ta'lim--tarbiya olishning keyingi bosqichlarida davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish.

Informatika va axborot texnologiyalari fanidan O'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablari

1. Axborotlarni izlash va elektron vositalarda yig'ish kompetensiyasi:

B1

Axborot resurslaridan maqsadli izlash va saralash vazifalarini bajara oladi;
axborotlarni arxivlash dasturlari imkoniyatlarini biladi, amaliyotda qo'llay oladi;
axborotlashgan jamiyat haqida tasavvurga ega bo'ladi;
multimedia tizimlari haqida bilimga ega bo'ladi, amaliyotda qo'llay oladi;
kompyuter grafikasi va uning turlari haqida bilimga ega bo'ladi;
ma'lumotlar omborini yaratish va boshqarishda qo'llaniladigan dasturlar haqida bilimga ega bo'ladi;
kasbiy sohalarda qo'llaniladigan amaliy dasturlar haqida bilimga ega bo'ladi.

B1+

Axborotga oid modellar, texnik vositalar va axborot resurslari haqida misollar keltira oladi;
zamonaviy dasturlash tillari va ularning tasnifini biladi;
o'zining sohasiga yo'naltirilgan amaliy dasturlar imkoniyatlari haqida bilimga ega bo'ladi va ulardan foydalana oladi.

2. Axborotlarni elektron vositalarda qayta ishlash va saqlash kompetensiyasi:

B1

Kompyuterlarning arifmetik va mantiqiy asoslariga oid amaliy masalalarni hal eta oladi;
turli mavzularda multimedia imkoniyatlari qo'llab, taqdimotlarni mustaqil ravishda tayyorlay oladi;
rastrlı grafik muharrir yordamida rasm va fotosuratlarini qayta ishlay oladi;
turli ko'rinishdagi axborotlarni mos dasturiy ta'minot yordamida tasvirlash, saqlash, qayta ishlash vazifalarini mustaqil hal eta oladi;
ommaviy, ta'limiy axborot resurslaridan foydalana oladi, ularni kerakli ko'rinishga keltirish uchun qayta ishlashga oid amallarni bajara oladi;
kompyuter viruslari va axborot xavfsizligi muammolarini hal eta oladi;
web-sayt ko'rinishidagi axborotlarni qayta ishlay oladi;
maxsus amaliy dasturlar yordamida ma'lumotlar ombori va so'rovlar hosil qila oladi va hisobotlar tayyorlay oladi;
turli masalalarni yechishga oid algoritmlar tuza oladi;
obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillaridan birida masalalarni yechishga doir dasturlar tuza oladi.

B1+

Rastrli va vektorli grafik muharrir yordamida tasvirlarni qayta ishlay oladi;
maxsus amaliy dasturlar yordamida ma'lumotlar ombori, so'rovlar va shakllar hosil qila oladi, hisobotlar va sodda makrosalar tayyorlay oladi;
amaliy dasturiy ta'minot va dasturlash tili imkoniyatlaridan foydalanib multimediali resurs tayyorlay oladi.

3. Axborotlarni elektron vositalar orqali uzatish kompetensiyasi:

B1

Axborotni uzatishning eng samarali usullarini amalda qo'llay oladi;
axborot uzatishda Internet va uning xizmatlaridan samarali foydalana oladi;

axborot xavfsizligini ta'minlaydigan usullardan foydalanib axborot uzata oladi;
matn va jadval protsessorlari, taqdimot dasturlari yordamida hujjatlarni pochta orqali uzata oladi.

B1+

Axborot almashishning dasturiy ta'minotini sozlash asosida elektron tarmoqlar imkoniyatlaridan foydalana oladi;

matn va jadval protsessorlari, taqdimot dasturlari yordamida hujjatlarni axborot resursi sifatida saytga joylashtira oladi.

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI O'QUV DASTURI (10-11-SINF) (1-2 KURS)

UQTIRISH XATI

I Informatika va axborot texnologiyalari (Informatika va AT) – o'sib kelayotgan avlodga axborotlar bilan ishlash texnologiyalari va ulardan foydalanish jarayonlarini puxta o'zlashtirishni ta'minlashdan iborat. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi, mantiqiy tafakkur qila olish qobiliyati, aqliy rivojlanishi, o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllanishi va o'sishi ko'p jihatdan axborot texnologiyalariga bog'liqdir.

Inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.

Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli fanga oid kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Fanning maqsadi o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish orqali ularni mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan shaxs etib tarbiyalashdan iborat.

Informatika va axborot texnologiyalari o'quv fani o'rta umumta'lim maktablarining 5-sinfidan boshlanadi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida umumta'lim o'quv fani sifatida uzviy davom etadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari Informatika va axborot texnologiyalari ta'limida o'rganilgan o'quv materiallarining akademik litsey va kasb-hunar kollejlari Informatika va axborot texnologiyalari ta'limida aynan takrorlanmasligi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, umumiy o'rta ta'lim tayyorgarligiga mos kelishi hamda informatikaga oid tushunchalarni asta-sekin oddiydan murakkabga shakllantirilishi e'tiborga olingan.

Ilg'or milliy va xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda fanni o'qitishda rivojlangan davlatlarda keng qo'llanilayotgan STEM (science, technology, engineering and mathematics - fan, texnologiya, muxandislik va matematika) o'qitish konsepsiyasiga hamda dasturlashning tayanch tushunchalarini (mantiqiy amallar, algoritmlar, blok-sxemalar va x.k.) shakllantirish metodologiyasiga tayanish maqsadga muvofiq.

Informatika va axborot texnologiyalari o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi:

o'sib kelayotgan avlodni zamonaviy axborot texnologiya vositalari bilan ishlash malakalari, mustaqil, mantiqiy va algoritmik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan va olgan bilimlarini hayotda tatbiq etishga o'rgatishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida informatika va axborot texnologiyalari ta'limining asosiy vazifalari:

inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida informatika va axborot texnologiyalarining ahamiyatini anglash;

o'quvchilarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularni amaliyotda qo'llash haqida bilimlar berish;

kompyuterda masalalar yechish texnologiyalari va asosiy bosqichlarini ketma-ketlikda to'g'ri bajarishga o'rgatish;

algoritmik tuzilmalar, algoritmlash va dasturlash asoslari haqida bilim berish;

kompyuterning dasturiy ta'minoti va ularning imkoniyatlarini ajrata bilish hamda amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish;

o'quvchilarni aqliy rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish;

fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, kreativlikni shakllantirish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini o'rgatib borish;

ta'lim-tarbiya olishning keyingi bosqichlarida davom ettirishlari, ongli ravishda kasb tanlashga zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

8-9-sinflardagi amaliy mashg'ulotlarda "Iqtisod va soliq saboqlari", "Tejamkorlik saboqlari" o'quv kurslariga bog'liq bo'lgan masalalar yechilishi lozim.

O'qituvchi amaliy mashq darsida nazorat ishi natijalariga ko'ra o'quvchilarda aniqlangan bo'shliqlarni bartaraf etish maqsadida xatolarni tushuntiradi, o'quvchilar esa nazorat ishida berilgan topshiriqlarga o'xshash topshiriqlarni yechadi va hulosalar chiqaradi. Bunda o'qituvchiga tabaqalashtirilgan ta'lim prinsipiga tayanishi tavsiya etiladi.

Informatika va axborot texnologiyalari fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarning elementlari (A1(A1+); A2(A2+)) bosqichma - bosqich shakllantiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-7-sinflarning har birida Informatika va AT - 17 soatdan, jami - 51 soat, 8-sinfda Informatika va AT - 34 soat, 9-10-11-sinfda - 68 soat o'qitiladi. Darslar ikki guruhga bo'lib o'tiladi.

Shuningdek, me'yoriy hujjatlarni yuritishda **tayanch** va **fanga oid kompetensiyalar** quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi.

I. TK-tayanch kompetensiya

1. TK1-kommunikativ kompetensiya
2. TK2-axborot bilan ishlash kompetensiyasi
3. TK3-o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi
4. TK4- Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
5. TK5- Milliy va umummadaniy kompetensiya
6. TK6- Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

1. FK1-Axborotlarni izlash va elektron vositalarda yig'ish kompetensiyasi
2. FK2-Axborotlarni elektron vositalarda qayta ishlash va saqlash kompetensiyasi
3. FK3-Axborotlarni elektron vositalar orqali uzatish kompetensiyasi

10-SINF (1-KURS)

(haftasiga 2 soatdan, jami - 68 soat; B2+:haftasiga 3 soatdan, jami-104soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiyasi:

B1

ijtimoiy vaziyatlarda eng avvalo ona tilida hamda birorta xorijiy tildagi fanga oid mavzularga tegishli atamalarni bayon etishda o'zaro muloqotga kirisha olish.

axborot kommunikatsion texnologiyasidan foydalanishda xorijiy tildagi atamalarni mazmunini tushungan holda uni jarayonga qo'llay bilish;

Muloqotda muomala madaniyatiga amal qila olish, hamkorlikda, jamoada samarali ishlay olish.

B1+

muloqotda muomala madaniyatiga amal qilib, fanga oid voqea va hodisalarni izlab topa oliash va to'plash, tahrir qilish, tushuntirib bera olish;

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

B1

mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish saralash, qayta ishlash, saqlash, ulardan foydalana olish, ularning xavfsizligini ta'minlash, mediamadaniyatga ega bo'lish.

B1+

Axborot vositalarda axborot izlaydi, olingan axborotdan voqea va hodisalarni ajrata olish, qayta ishlay olish, tushuntirib berish.

O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

B1

doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, va intellektual rivojlantirish;

kreativ rivojlantirish

kamolotga intilish;

hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish;

kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash

o'z hatti-harakatini baholay bilish.

B1+

bola huquqlari, voyaga yetmaganlik tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglagan holda bayon qila bilish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

B1

jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish;

unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy

madaniyatga ega bo'lish
o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish.

B1+

kundalik faoliyatida vujudga keladigan turli vaziyatlarni to'g'ri baholay olish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

B1

vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish;

badiiy va san'at asarlarini tushunish;

orasta kiyinish; madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish

B1+

Vatanini sevish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatda bo'lish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

B1

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish

B1+

hisob-kitoblarga asoslangan holda kundalik, shaxsiy, oilaviy rejalarni algoritmini tuzish va amalda qo'llay olish.

1-BOB. MS EXCELDA AMALLAR VA FORMULALAR (19 soat, B1+: 18 soat)

1-mavzu. Amallar va sodda ifodalarni hisoblash (1 soat, B1+: 1 soat).

Bir amalli arifmetik ifodalar;

Bir necha amal va qavs qatnashgan arifmetik ifodalar

2-mavzu. Katakka murojaat: nisbiy, absolyut va aralash murojaat (1 soat, B1+: 1 soat)

Katak yoki blokni nomlash

3-mavzu. Murojaatdan foydalanib amal bajarishda nusxalashning afzalligi (1 soat, B1+: 1 soat)

Sonning darajalarini hisoblash

4-mavzu. Inson yashagan kunni hisoblash masalasi (1 soat, B1+: 1 soat)

Murojaatdan foydalanib karra jadvalini hosil qilish

5-mavzu. Boshqa varaq yoki kitobga murojaat (1 soat, B1+: 1 soat)

Matnlarni ulash masalasi, amaliy mashg'ulot

6-mavzu. MS Excelning funksiyalar kutubxonasi (1 soat, B1+: 1 soat)

Funksiya tushunchasi

7-mavzu. Funksiya argumenti oynasi (1 soat, B1+: 1 soat)

Мастер функций yordamida funksiya joylashtirish

8-mavzu. Formulalar tasmaidan foydalanish (1 soat, B1+: 1 soat)

Formulani tahrirlash

9-mavzu. Blokni nomlashdan foydalanish Funksiya nomini yozib joylashtirishda avtotanlash imkoniyati (1 soat, B1+: 1 soat)

Matnlar bilan ishlash funksiyalari

10-mavzu. Mantiqiy funksiyalar (1 soat, B1+: 1 soat)

Mantiqiy funksiyalarni qo'llab mantiqiy ifoda hisoblash

Mantiqiy funksiyalarni qo'llab matematik masala yechish

11-mavzu. Mustahkamlash uchun amaliy mashgulot (1 soat, B1+: 1 soat)

12-mavzu. Nazorat ishi (1 soat, B1+: 1 soat)

13-mavzu. Matematik funksiyalar (1 soat, B1+: 1 soat)

Sodda matematik funksiyalar

Trigonometriyaga oid ba'zi funksiyalar

14-mavzu. Ko'paytma hisoblashga oid funksiyalar (1 soat, B1+: 1 soat)

Yig'indi hisoblashga oid funksiyalar

Qator yig'indilarini hisoblash

15-mavzu. Statistika funksiyalar (1 soat, B1+: 1 soat)

Statistik ma'lumotlarni sodda tahlili

Shartli formatlash imkoniyati

Ma'lumotlar to'plamidan ekstremal qiymatlarni aniqlash

16-mavzu. Mustahkamlash uchun amaliy mashg'ulot (1 soat, B1+: 1 soat)

